

Sport bayrami

2021-yil 24-oktabr Yangi O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochiladigan sana. Erta tongdan butun Respublikamiz bo'ylab saylovchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash uchun o'z saylov uchastkalari tomon oshiqishmoqda.



Institutimizda saylov jarayonlari talaba-yoshlarning sport bayramiga ulanib ketdi. Institut sport kompleksi talabalar bilan gavjum. Fakultetlararo talaba-yoshlarning "Bo'sh vaqtimiz – sport bilan birga" shiori ostida tashkil etilgan sportning mini-futbol, kurash, shaxmat, shashka, stol-tennisi va voleybol turlari bo'yicha "Rektor kubogi" hamda institut birinchiligi uchun musobaqalar yuqori saviyada davom boshlandi.



Musobaqa Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor R.Choriyev tomonidan olib berildi. Musobaqalar an'anaga muvofiq talabala-yoshlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylash bilan boshlandi. Qur'a tashlash jarayonlari amalga oshirilgandan so'ng barcha sport turlari bo'yicha start berildi. Musobaqani "Professional ta'lif va jismoniy tarbiya" kafedrasini professor-o'qituvchilaridan M.Norqobilov, A.Xodjanov, V.Mahmudov, F.Odilova hamda institut Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisining birinchi o'rinnbosari A.Hasanovlar kuzatib, hakamlik qilib borishmoqda. Barcha talaba-yoshlarni hamda professor-o'qituvchilarni institut sport kompleksidai "Sport bayrami" qutladi.



TIQXMMI matbuot xizmati